



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 615 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna	
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari	332
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili	336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	342
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna	
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash	352
Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri.....	358
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integratsiyasi istiqbollari.....	362
Ochilov Abdujabbor Akramovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari.....	369
Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna	
Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni	375
Pulatov Shaxron Axmedovich	
Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari.....	379
Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich	
Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida).....	390
Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari.....	397
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna	
Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti.....	403
Yulduz Usmanova	
Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati.....	411
Hamroyeva Umida	



Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan	415
Abdualilova Bibisora Bakhodir kizi	
Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv.....	423
Urinov Bobur Nasilloevich	
JAS – barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi	423
Baynazarov Elmurod Erkinovich	
Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo'llari	435
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
The impact of digital financial technologies on the financial system.....	439
Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li, Pardayev Olim Mamayunosovich	
Korxona eksport salohiyatini oshirishning "yashil" marketing mexanizmi	443
To'rayev Shohrux Halimovich	
O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo'llari	448
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalar	453
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Ayollar tadbirkorligining tarixi: O'zbekiston va dunyo bo'yicha rivojlanishi.....	459
Burxanova Sabo Tulanovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar risklarini pasaytirishni takomillashtirish yo'llari.....	466
Xalilov Umid Ishtemirovich	
Korxona moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliga fundamental yondashuv.....	470
Dilshodjon O'rinov, Sanobar Ismoilova	
Iqtisodiy o'zgarishlar davrida korxonalar moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi omil va mezonlari	475
Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
Cash accounting as a tool of financial discipline and transparency in the public sector	481
Marqaboyev Sardorbek Abdusalomovich, Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Пути совершенствования практике финансирования социального предпринимательства.....	486
И.Ж.Исаков	
O'zbekistonda an'anaviy resurslar va qayta ishlanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish	490
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevdal Shamsiddin qizi	
Ijtimoiy salohiyat – hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqaruv obyekti sifatida.....	497
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna, Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
Xorazm oziq-ovqat bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda marketing faoliyatlarini baholash usullari	503
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
Переход к зелёной энергетике узбекистана как возможность достижения устойчивого экономического роста	508
Бай Жин Хуан (Bai Jin xuan)	
Изучение условий финансирования проектов международными банками развития	513
Жалилова Барнохон Суръатжоновна	
O'zbekiston respublikasi budjet jarayonida budjetlarning ochiqqligi va jamoatchilik ishtirokini oshirish.....	517
Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li	
Chiqib ketayotgan aktivlarni hisobga olish va baholash masalalari	522
Kuziyeva Dinora Bahodirovna	
Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri.....	528
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Changes in employee benefits and human resource management in accounting system of the Republic of Uzbekistan	535
Ravshanbekov Lazizbek Tolibjon o'g'li, Toshpulatova Munisabonu	



Iqtisodiyot tarmoqlarida suv iste'molini boshqaruvining raqamlashtirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari.....	541
Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
Теоретические аспекты налогообложения доходов физических лиц на основе всеобщего декларирования 547	547
Усманова Мухлиса Сагдуллаевна	
Bank tizimini raqamlashtirish va uning bank barqarorligiga ta'siri.....	555
Sayfullayev Jamshidjon Xabibjanovich	
Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining o'rni.....	560
Saparov Ismat Chorshanbiyevich	
Innovatsion korxonalarda xarajatlar hisobining zamonaviy usullari	565
Turayev Og'abek Kaxramonovich, Ochilov Shavkat Toshmamatovich	
Дополнительные услуги в индустрии гостеприимства как эффективный инструмент продвижения бренда предприятия	570
А.И. Лесников, Д.В. Мамаева	
Преимущества и вызовы перехода на зелёную экономику	580
Умарова Гузал Гайратовна, Лапасова Камола Фарход кизи	
Yashil iqtisodiyot sharoitida hududlarda ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish	586
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li, Djurayeva MaxliyoXon Xayrullayevna	
Yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bevosita soliqlar rolini oshirish masalalari	591
Abdullayev Dilmurod Aliyar o'g'li	
The main directions for improving innovative activities in agriculture	598
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Klaster tizimi orqali O'zbekistonda qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishi	605
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
Inklyuziv ta'lim: adolatli va teng jamiyat sari	610
Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna	



INKLYUZIV TA'LIM: ADOLATLI VA TENG JAMIYAT SARI

Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Budjet hisobi va g'aznachilik”

kafedrası mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'limni rivojlantirishda uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Muammolar orasida infratuzilma yetishmovchiligi, o'qituvchilarning malaka darajasi, ota-onalarning xabardorligi, o'quv dasturlarining moslashmaganligi, jamiyatdagi stigma va moliyaviy resurslarning cheklanganligi kabi masalalar keltirilgan. Ushbu maqola inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish uchun muhim tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: inklyuziya, inklyuziv ta'lim, bolalar huquqi, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar, maxsus pedagog, teng imkoniyatlar.

Abstract: This article explores key issues encountered in the development of inclusive education and suggests solutions to address them. Problems such as insufficient infrastructure, inadequate teacher qualifications, lack of parental awareness, unadapted curricula, social stigma, and limited financial resources are discussed. The article provides essential recommendations for improving the inclusive education system.

Key words: inclusion, inclusive education, children's rights, children with special educational needs, special educator, equal opportunities.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные проблемы, возникающие при развитии инклюзивного образования, и пути их решения. Среди проблем выделены нехватка инфраструктуры, недостаточная квалификация учителей, осведомленность родителей, неподготовленность учебных программ, социальная стигматизация и ограниченные финансовые ресурсы. Статья содержит важные рекомендации для развития системы инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзия, инклюзивное образование, права ребенка, дети с особыми образовательными потребностями, специальный педагог, равные возможности.

KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Inson qadri – eng oliy qadriyat bo'lishi shart.” Inklyuziv ta'lim aynan shu g'oyaga asoslangan holda, har bir shaxsga munosib ta'lim va tarbiya olish imkonini yaratadi. Shuningdek, davlat rahbari ta'lim tizimini takomillashtirishda “hech kim e'tibordan chetda qolmasligi kerak” degan tamoyilni ilgari suradi. Bu esa inklyuziv yondashuvning amaldagi muhim asosidir.

Har bir inson tabiiy imkoniyatlaridan qat'i nazar, to'laqonli ta'lim olish huquqiga egadir. Zamonaviy jamiyatda inklyuziv ta'lim – bu nafaqat ijtimoiy barqarorlik kafolati, balki barcha a'zo uchun teng imkoniyatlar yaratishning muhim shartidir. O'quv muhitini barchalar uchun moslashtirish orqali, imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatda faol ishtirok etishiga yo'l ochiladi. Bunday yondashuv inson qadr-qimmatini hurmat qilish, huquq va erkinliklarni ta'minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim tizimini, balki butun jamiyatning qarashlarini o'zgartirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv barcha bolalarning birga o'qishini ta'minlab, hamjihatlik va bag'rikenglik muhitini shakllantiradi. Shu orqali biz adolatli va farovon jamiyat sari dadil qadam tashlaymiz. Mavzuning dolzarbligi ayni shu nuqtalar bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Konstitutsiya – mamlakatdagi barcha qonun va siyosatlarning asosi hisoblanadi. Unda har bir fuqaroning teng huquqliligi, ta'lim olish imkoniyati kafolatlangan. Inklyuziv ta'limni amalga oshirishda Konstitutsiyaning 41-moddasi “Har kim ta'lim olish huquqiga ega” asosiy huquqiy poydevor vazifasini bajaradi.



O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 23-noyabrdagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun¹ bolalarning huquqlarini himoya qilishda, ayniqsa nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim sohasida teng imkoniyatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Qonun inklyuziv ta'lim g'oyasini qonuniy jihatdan mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son² Qonunida ta'limning barcha shakllari, jumladan, inklyuziv ta'limning tashkil etilishi, mazmuni va shakllari belgilab berilgan. Unda "barcha uchun ta'lim" tamoyili asos qilib olingan va inklyuziv muhitda ta'lim berish huquqiy jihatdan ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli³ qarorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun maxsus o'quv dasturlari, psixologik va pedagogik yordam tizimini yaratishga qaratilgan. Inklyuziv ta'limni amalga oshirishda amaliy mexanizmlarni taklif etadi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi, ushbu hujjatda inklyuziv, barqaror va inson markazlashgan jamiyat barpo etish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Unda "hech kim orqada qolmasligi" tamoyiliga tayanilib, imkoniyati cheklangan insonlarni jamiyatga to'liq integratsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son⁴ qarorda inklyuziv ta'limga oid normativ-huquqiy bazani mustahkamlaydi. U orqali maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim tizimiga jalb etish va ularning imkoniyatlarini oshirish bo'yicha huquqiy mexanizmlari belgilangan.

S.Hamdammov[11]ning "Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyalashtirish" nomli maqolasida ijtimoiy himoya va kambag'allikni qisqartirish masalalari yoritilgan bo'lib, inklyuziv ta'limning ijtimoiy barqarorlikka qo'shadigan hissasi aniq ko'rsatilgan. Himoyaga muhtoj bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish – kambag'allik davrida muhim masala ekani ta'kidlab o'tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim jamiyat ravnaqining asosiy ustuni bo'lib, yosh avlodning ongi va kelajagini shakllantiradi. Yillar davomida an'anaviy ta'lim tizimi doirasida ko'plab o'quvchilar alohida sinflarga, maxsus maktablarga joylashtirilgan, ayrimlari hatto ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'lgan. Inklyuziv ta'lim falsafasi buni o'zgartirishni maqsad qiladi va barcha bolalarga teng sharoitlarda ta'lim berish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jamiyatning ajralmas qismi sifatida tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil hayotga moslashishiga yordam berishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasi nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo miqyosida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Zero, ta'lim sohasida teng imkoniyatlarni yaratish, alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning ham jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biridir.

Inklyuziv ta'lim to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, avvalo inklyuziya o'zi nima ekanligini aniqlab olish zarur. "Inklyuziya" so'zi umumiy ma'noda "qamrab olish" yoki "o'z ichiga olish" ma'nosini bildiradi. U inglizcha "inclusion" so'zidan olingan bo'lib, o'z navbatida lotincha "includere" so'zidan kelib chiqqan. Lotincha "includere" so'zi "in" – "ichiga" va "claudere" – "yopish, qamrab olish" birikmasidan tashkil topgan bo'lib, u "ichiga kiritish" va "qamrab olish" ma'nosini beradi.


Inklyuziya – bu barcha insonlarning, ularning imkoniyatlari, jismoniy yoki ruhiy holati, irqi, dini yoki ijtimoiy maqomidan qat'i nazar, jamiyatda teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan tushuncha. Quyidagi rasmda eksklyuziya (istisno), separatsiya (ajratish), integratsiya va inklyuziya o'rtasidagi farqni yaqqol ko'rishimiz mumkin (1-rasm).

1 <https://lex.uz/mact/-1297315>

2 <https://lex.uz/mact/-1297315>

3 <https://lex.uz/docs/-5013007>

4 <https://lex.uz/docs/-5044711>



1-rasm. Izolyatsiyadan inklyuziyaga: tenglik sari imkoniyat⁵

Inklyuziv ta'lim esa, o'quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda barcha bolalarni birgalikda ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish tizimidir. Uning asosiy maqsadi – imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga moslashtirish va ularning to'laqonli rivojlanishini ta'minlashdir.

Inklyuziv ta'lim nima uchun muhim?

Birinchidan, har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratiladi. Har bir o'quvchi, imkoniyatidan qat'i nazar, ta'lim olish huquqiga ega bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasiga muvofiq, har bir bola bilim olish huquqiga ega bo'lib, davlat ularning bepul majburiy umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim olishini kafolatlaydi. Shuningdek, 29-moddada tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tavsiyasi bo'lgan taqdirda, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalari o'z xohish-istagiga ko'ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim (umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.

Ikkinchidan, jamiyatda bag'rikenglikni shakllantiradi. Inklyuziv muhitda o'sgan bolalar turli insonlar bilan muloqot qilib, hurmat, tolerantlik va mehr-oqibatni o'rganadilar.

Uchinchidan, imkoniyati cheklangan bolalarga ijtimoiylashuv imkonini beradi. Ular atrofidagi odamlar bilan muloqotni kuchaytirish orqali o'zlarini jamiyatning bir qismi sifatida his qiladilar.

To'rtinchidan, o'qituvchi va pedagoglar uchun yangi malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi. Inklyuziv ta'lim orqali pedagoglar individual yondashuv va innovatsion usullarni qo'llashni o'rganadilar.


Inklyuziv ta'lim nafaqat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, balki jamiyat uchun ham muhimdir, chunki u kelajakda barcha insonlar o'rtasida tenglik va hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Zero, inklyuziv ta'lim bu faqatgina nogiron bolalarni umumta'lim maktablariga joylashtirishdan iborat emas, balki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jamiyatning ajralmas qismi sifatida tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil hayotga moslashishiga yordam berishga qaratilgan bo'lib, butun ta'lim tizimini qayta qurish, xilma-xillikni qabul qilish va har bir o'quvchiga zarur qo'llab-quvvatlashni ta'minlashdir. YUNESKO ta'rifiga ko'ra, inklyuziv ta'lim "har qanday farqlaridan qat'i nazar, barcha bolalarning bir maktabda birgalikda o'qishini va kerakli yordam bilan ta'minlanishini kafolatlashdir". Binobarin, inklyuziv ta'lim o'qitish uslublarini, ta'lim muhitini va ta'lim siyosatini o'quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashtirishni o'z ichiga oladi.

Inklyuziv ta'lim nima uchun aynan bugun dolzarb?

AQSHning Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazining ma'lumotlarida inklyuziv ta'limga ehtiyoji bo'lgan, shu jumladan autistik spektrida buzilishlar aniqlangan bolalar sonining o'sishini tasdiqlovchi aniq ma'lumotlar va tendensiyalar keltirilgan. Xususan, 2004-yilda 166 boladan 1 nafar bolada autistik spektrida buzilishlar aniqlangan bo'lsa, 2023-yilga kelib har 36 boladan 1 nafarida aniqlangan (2-rasm).

⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan.



2-rasm. 2004–2023-yillarda AQSHdagi 8 yoshdagi bolalar o'rtasida kuzatilgan dinamik o'zgarishlar⁶

Ushbu ma'lumotlar so'nggi yigirma yilda autistik spektrida buzilishlar holatini aniqlashning sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda autizm prevalentligi bo'yicha tadqiqotlar

37 ta mamlakatda o'tkazilganligi va ularning barchasi o'xshash tendensiyalarni ko'rsatganligini inobatga olib, autistik spektrida buzilishlar holatlari soni o'sib borayotganligi haqidagi ma'lumotlarning to'g'riligi shubhasiz. Bu esa inklyuziv ta'lim doirasida maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalar sonining to'g'ridan to'g'ri ortishiga olib kelmoqda.

Inklyuziv ta'limni tashkil qilish va takomillashtirish masalasi dastavval sohaga oid muammolarni aniq belgilab olishni talab qiladi.

Birinchidan, inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus metodika va pedagogik yondashuv ko'nikmalariga ega o'qituvchilar sonini tizimli oshirish, bunda:

a) o'qituvchilar uchun inklyuziv ta'limga oid maxsus malaka oshirish kurslari va treninglarini tashkil etish. Ushbu treninglarda zamonaviy metodika, psixologik yondashuv va texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratish muhim;

b) oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus yo'nalishlar va amaliy mashg'ulotlarni kengaytirish. Treninglarda nafaqat nazariy, balki amaliy ko'nikmalar shakllantirilishiga alohida e'tibor qaratish zarur;

c) maxsus pedagoglarni tayyorlash bo'yicha yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish. Dasturlar amaliy mashg'ulotlarga boy bo'lishi, o'qituvchilarni psixologik va maxsus pedagogik yondashuvlarga o'rgatishga yo'naltirilishi muhim.

Ikkinchidan, infratuzilmani takomillashtirish:

a) maktablar infratuzilmasini yangilash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish va maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun moslashtirilgan jihozlar bilan ta'minlash. Bunda har bir hududdagi maktablarning ehtiyojlari tahlil qilinib, resurslar teng va samarali taqsimlanishi lozim;

b) Mahalliy transport kompaniyalari bilan hamkorlikda maxsus avtobuslar va transport xizmatlarini joriy qilish. Bunda transport haydovchilari uchun maxsus tayyorgarlik kurslari tashkil etish va bolalar xavfsizligini ta'minlashga e'tibor berish zarur.

Uchinchidan, o'quv dasturlari va darsliklarni maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun moslashtirish:

a) o'quv dasturlarini inklyuziv talablarga mos ravishda yangilash va maxsus darsliklar yaratish. Ushbu darsliklar bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi muhim;

b) har bir sinf uchun maxsus pedagog, yordamchi pedagog va (yoki) tyutor ajratish tizimini joriy qilish. Bunday yordamchilar har bir bola uchun individual reja ishlab chiqishga ko'maklashishi kerak. Shuningdek,

⁶ AQShning Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazining (U.S. Centers for disease control and prevention, Autism Speaks) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun tibbiyot xodimini birlashtirish tizimini joriy qilish tavsiya etiladi. Bu xodimlar bolalarning salomatligini kuzatish va muayyan sog'liq muammolarini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, inklyuziv ta'limning mohiyati va afzalliklari haqida ota-onalar o'rtasida yetarli xabardorlikni oshirish:

a) inklyuziv ta'lim targ'iboti uchun maxsus seminar va treninglar tashkil etish. Ushbu treninglarda ota-onalarga inklyuziv muhitda bolalarni tarbiyalash va qo'llab-quvvatlash usullari haqida ma'lumot berish muhim;

b) ota-onalarga maslahat markazlari va psixologik yordam tizimini kengaytirish. Bu markazlarda psixolog, psixonevrolog, defektolog va logoped kabi mutaxassislar xizmat ko'rsatishi lozim.

Beshinchidan, jamiyatda maxsus ehtiyojga ega bolalarga nisbatan salbiy tushuncha va stereotiplarni bartaraf qilish:

a) jamiyatda inklyuziv ta'limni targ'ib qilish uchun ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy kampaniyalar o'tkazish. Bunday kampaniyalarda muvaffaqiyatli misollar va real hayotdagi ijobiy natijalarga urg'u berish muhim;

b) maktablarda ijtimoiy faollik va do'stlik muhitini rivojlantirish uchun klub va jamiyatlar tashkil etish. Bu orqali bolalar o'z tengdoshlarining imkoniyatlarini tushunishi va qabul qilishi uchun muhit yaratiladi.

Oltinchidan, davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish uchun dasturiy budjetlashtirish asosida moliyalashtirish, xalqaro grantlar jalb qilish, xususiy sektor va xayriya tashkilotlari bilan hamkorlikda qo'shimcha manbalarni safarbar qilish orqali inklyuziv ta'limni moliyalashtirishni takomillashtirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim – adolatli va teng jamiyat sari intilishning asosiy elementi hisoblanadi, chunki u barcha talabalarni teng bilim olish imkoniyatlari bilan ta'minlash orqali ijtimoiy integratsiyani mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim tizimini muvaffaqiyatli tashkil etish pedagoglarning malakasi, innovatsion o'quv metodlari va zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq qator o'zaro integratsiyalashgan omillarga bog'liqdir. Barqaror va inklyuziv ta'lim muhitini yaratish orqali, shuningdek, cheklangan imkoniyatlarga ega bo'lgan talabalar ishtirokini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash mumkin.

Kelgusida inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Pedagoglar va ta'lim rahbarlari uchun maxsus trening va professional rivojlanish dasturlarini joriy etish;
2. Raqamli texnologiyalar va interaktiv o'quv resurslarini kengaytirish orqali o'quv jarayonini zamonaviylashtirish;
3. Davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik asosida inklyuziv ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish va ularni muntazam monitoring qilish zarur.

Ushbu chora-tadbirlar inklyuziv ta'limni yanada mustahkamlash va adolatli, teng imkoniyatli ta'lim muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/mact/-1297315>
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 13.10.2020-yildagi PQ-4860-son qarori <https://lex.uz/docs/-5044711>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 12.10.2021-yildagi 638-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5679836>
7. UNESCO. (2019). Inclusive Education and Children with Disabilities: Global Review.
8. World Bank. (2021). Investing in Inclusive Education for All Children.
9. United Nations Children's Fund (UNICEF). (2020). Promoting Inclusive Education: Strategies and Policies.
10. National Center for Education Statistics (NCES). (2018). U.S. Special Education: A Historical Overview.
11. Hamdamov, S. (2024). Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyalashtirish. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 13, 64-66.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
